O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN HOKIMINING
Q A R O R I

Angor tumani, At-Termiziy ko‘chasi 58-uy. 190200, tel.: (+99876) 312-20-12, angor@exat.uz,

2021 - yil 30 - dekabr 290-8-109-Q/21 Angor tuman hokimligi

Angor tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 2011 yil 4 apreldagi 101-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan tuman hududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Rajabova), tuman “Obodonlashtirish” boshqarmasi (Q.To‘laganov) fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

sanitariya qoidalari va me’yorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (Q.To‘laganov):

xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini;

qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, ob’ektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qaror “Angor yog‘dusi” tuman gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Mamayusupov hamda tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Rajabova zimmalariga yuklansin.

Hokim **SH.B.ABDULLAYEV**

Ангор туман ҳокимининг
2021 йил 30 декабрдаги
290-8-109-Q/21-сон қарорига
1-илова

Angor tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish

bo‘yicha tariflar miqdori

so‘m

T\r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	Tuman	Tuman
1.	Go‘r qazish	1 o‘ringa	Bepul	Bepul
2.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o‘ringa	Bepul	Bepul
3.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	Bepul	Bepul
4.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o‘rin/kunga	Bepul	Bepul

*Maxallalarda narxlar tafovut qilishi mumkin, shu sababli ustunlar soni ikkita.